

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MO‘LLAYEV BAXTIYOR MASHRABOVICH

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI
INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona– 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Mo'layev Baxtiyor Mashrabovich

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion pedagogik
texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... 3

Муллаев Бахтиёр Машрабович

Совершенствование методики развития профессиональной подготовки
будущих учителей на основе инновационных педагогических
технологий.....

Mullaev Bakhtiyor Mashrabovich

Improving methodology of developing professional training of future teachers
based on innovative pedagogical technologies.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published
works..... 46

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MO‘LLAYEV BAXTIYOR MASHRABOVICH

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY
TAYYORGARLIGINI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona– 2024

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.1.PHD/Ped4364 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Temirov Nabijon Soliyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "____" _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: ((+99873) 244-44-02, e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil "____" _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.Shermuhammadov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

T.Bakirov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d., dotsent

B.Qurbonova

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo'lajak pedagoglarni xar tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirish tizimini takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik innovatsion yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jadal rivojlanib borayotgan jamiyat xayotida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligini oshirish zarurati ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi ta'limiy islohotlar doirasida innovatsion pedagogik texnologiyalar imkoniyatlaridan ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda tizimli foydalanish ustuvor vazifalar sifatida qaralmoqda. Shunday ekan, bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlash sifatini zamon talablari darajasiga ko'tarish, ta'limning innovatsion pedagogik texnologiyalarini yaratish va ularni amaliyotga samarali joriy etish orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish oliy ta'limning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Dunyoning ilg'or ilmiy-tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida bo'lajak kadrlarni tayyorlashga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, pedagogik jarayonni ratsional loyihalash, rejalashtirish va modellashtirish asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish kabi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga yangi yondashuvlarni tatbiq etish, ularning shaxsiy qobiliyatlarini pedagogik jarayonda erkin namoyon qila olishga erishish, ularning kasbiy pozitsiyasi, o'qituvchilik mahorati va ta'lim-tarbiya jarayonida o'qitish texnikasini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar ham amalga oshirilmoqda. Bu orqali bo'lajak o'qituvchilarning nazariy va uslubiy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiyani ta'minlash, ta'lim muhitini barqarorlashtirish va kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish maqsad qilinadi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar orasida "pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish" vazifalari alohida o'rin olgan. Bu esa yurtimizda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish tizimini takomillashtirishni muhim vazifalar qatoriga qo'shadi. Shu sababli, pedagogik faoliyatni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash va modellashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish zarurati dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida" PF-5264-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-son, 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-son, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-289-son Qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik mahorati, kasbiy pozitsiyasi va taktikasini o'stirish masalalari ko'plab G'arb, MDH va mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham mazkur jarayon tizimli amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari S.Y.Axmadaliev, U.Sh.Begimqulov, N.H.Kushvaktov, O'.Q.Tolipov D.A.Mustafoeva, N.A.Muslimov, B.X.Rahimov, A.A.Xalikov, O.A.Qo'ysinov, E.M.Alkarov, A.R.Aripdjanova, B.Q.Xodjaev, B.T.Juraev, S.D.Bazarovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan¹. Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilishning amaliy jihatlari, o'quv jarayoni loyihalarini yaratish masalalari M.Tojiyev, B.Ziyomuhammadov, O'.Q.Tolipov, L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva,

¹ Axmadaliev S.Y. Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashishining ilmiy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent.: 2008. – B. 167.; Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ...diss. – T.: 2007. – B. 305.; Kushvaktov N.H. Talabalarni milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Jizzax.: 2006. – B. 150.; 94. Tolipov O'. "Pedagogik texnologiya" (Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalari uchun darslik) // Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2021.; Mustafoeva D.A. Ixtisoslik fan o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD). – T.: 2020. – B. 169.; Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. ped. fan. dok. diss. –Toshkent.: 2007. – B. 315.; Rahimov B.X. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyat munosabatlarining shakllanishi: Dis. ... ped. fan. nom. –Toshkent.: 2005. – B. 161-163.; Xalikov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish: Dis. ... ped. fan. dok – T.: TDPU, 2018. –B. 235.; Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Ped. fan. dok.... Dis. – T., 2019. –237 b.; Alkarov.E.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish: p. f. b. f. d. (PhD) dis. avtoref. – T., 2021. – 50 b.; Aripdjanova A.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: p. f. b. f. d. (PhD) diss. avtoref. – T.: 2017. –50 b.; Xodjaev B.Q., Juraev B.T. Pedagogik faoliyatga kirish. Monografiya. –Toshkent, 2019. – B. 124-128.

H.Qarshiboyev, A.Alimov kabi olimlar tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan².

MDH mamlakatlarida pedagoglarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida rivojlantirish, o'qitish jarayonini loyihalashtirish va ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, O.A.Kolesnik, B.T.Lixacheva, A.I.Mishenko, V.A.Slastenin, L.F.Spirina, L.G.Semushina, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, G.L.Ilin, T.K.Smikovskaya, S.V.Vasekin, O.B.Yepisheva, G.A.Monaxov, P.M.Erdniev, B.P.Erdniev, V.A.Slastenin, M.I.Lukyanova, E.F.Zeer kabi olimlarning tadqiqotlarida keltirilgan³.

Xorijlik olimlardan L.Buus, M.Georgsen, Angela Stoff, Benjamin Bloom, Brian Cole, Drapeau Patty, Jaslin Holberg, Merriyembar Jeron, Leyle. M. Spencer tomonidan pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan⁴.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetida 2018-2020 yillarga mo'ljallangan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi PZ-20170930223 raqamli "Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini mazmun-mohiyati, pedagogik asoslari, kasbiy-shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash;

² Tojiyev M., Ziyomuhhammadov B. O'ralova M. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash (Pedagogik texnologiya milliy modelining amaliyotga tatbig'i). Q.I: // O'quv qo'llanma. –T.: MUMTOZ SO'Z, 2011. – 196 b.; Ziyomuhhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. – T.: Lider Press, 2009. –132 b.; 95. Tolipov O'. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" T.: "Innovatsiya-ziyo" nashriyoti, 2019. Darslik.; 96. Tolipov O'. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari.-T.: Fan. 2004. – B.167.; Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. – T.: TA'SIS, 2001. 136 b.; Qarshiboev H. Q., Suvonov O., Qarshiboyev J.H. Musta qil ta'lim faoliyatini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari. – Guliston, 2011. –60 b.; Pedagogik texnologiya: ta'lim jarayoniga tatbiqi (Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida "Matematika o'qitish metodikasi" fanining modeli). I qism / Tojiyev M., Alimov – 135 b.

³ Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.:Педагогика, 1995. – 25 с.; Монахов В.М. Технологические основы проектирования учебного процесса: Монография. – Волгоград: Перемена, 1995. – 152 с.; Илин Г.Л. Теоретические основы проектирования образования: Дисс. докт. пед. наук. . – М., 1995. – 180 с.; Монахов В.М. Методология педагогический технологии академика В.А.Монахова. – М. : Михайловка. МСОП , 1997. 420 с.; Эрдниева П.М., Эрдниева Б.П. Укрепление дидактических единиц в обучении математике. – М.: Просвещение, 1986. – С. 35-36.; **Сластенин В.А. и др. Педагогика. – М.: Академия, 2002. – С. 38-42.**; Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика. – 2001. – №10. – С. 56-61.; Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – Москва: Академия, 2013. – С. 38.

⁴ Buus L., Georgsen M. A Learning Design Methodology for Developing Short Learning Programmes in Further and Continuing Education. Journal 136 of Interactive Media in Education, 2018(1): 8. – PP. 1-10, DOI: <https://doi.org/10.5334/jime.469>; Bloom B.S. (ed) et al. A taxonomy of Educational objectives: Handbook 1: The Cognitive Domain. Harvow, 1956. Cobb C.W; Cobb C.W., Douglas P.H. A theory of production. – American Econom Reviwew, 1928, v.18. – № 1.

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ijtimoiy moslashuv, o'z-o'zini baholash va rivojlanish ko'rsatkichlariga nisbatan integratsiyasini takomillashtirish;

innovatsion pedagogik texnologiyalar va yondashuvlardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tizimli pragmatik-modelini takomillashtirish.

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakasi va pedagogik mahoratini oshirish asosida pedagogik jarayonni loyihalash, rejalashtirish va modellashtirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayoni tanlangan. Tajriba-sinov ishlari Farg'ona davlat universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti va Guliston davlat universitetida o'tkazilgan.

Tadqiqot predmeti bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishning mazmuni, usullari va vositalaridir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga oid adabiyotlarni o'rganish, qiyosiy tahlil, so'rovnoma, test, pedagogik monitoring, sotsiologik-pedagogik kuzatish (suhbat, anketa); pedagogik tajriba-sinov; natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kasbiy-shaxsiy fazilatlar va axborot almashish muhitining o'zaro dinamik samaradorligi kasbiy kompetensiyalarni, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini kognitiv algoritmlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda axborot almashish muhitining o'zaro dinamik samaradorligi hamda ijodiy faoliyatning ustuvorligini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ularning shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish bosqichlarini didaktik integratsiyalash hamda tashkiliy-funksional imkoniyatlarini divergent va konvergent tafakkur shakllariga bosqichma-bosqich adaptiv uyg'unlashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga optimal singdirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va yondashuvlardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash modeli kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishdagi fundamental shakl, metod, vosita va mazmuniy mohiyati innovatsion pedagogik texnologiyalarni reproduktiv, produktiv va kreativ baholash mezonlarining intensiv modernizatsiyalashtirish asosida isbotlangan;

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakasi va pedagogik mahoratini oshirish asosida pedagogik jarayonni loyihalash, rejalashtirish va modellashtirishning samarali mexanizmlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, malaka va ko'nikmalarini o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli didaktik vazifalarga mos keladigan amaliy faoliyatni tashkil etishda passiv, faol va interfaol metodlarni kreativ yondashuv asosida samarali qo'llash orqali aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy-konseptual asoslari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali rivojlanish modeli va uni amalga oshirish metodikasi ishlab chiqilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

“Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya” nomli darslik nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida samarali rivojlanish mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari natijalarning matematik-statistik metodlar yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan samarali metodlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan nazariy va fundamental yondashuvlarning kengaytirilganligi, pedagogik mohiyati va interfaol texnologiyalardan foydalanish usullari batafsil yoritilganligi, yangi texnologiyalar aniqlanganligi va ularning empirik jihatdan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, u pedagogika va psixologiya fanlariga tayanib, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan o'qitish metodikasini ishlab chiqishda ilmiy yondashuvlardan samarali foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kasbiy-shaxsiy fazilatlar va axborot almashish muhitining o'zaro dinamik samaradorligi kasbiy kompetensiyalarni, kasbiy va shaxsiy fazilatlarni kognitiv algoritmlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda axborot almashish muhitining o'zaro dinamik samaradorligi hamda ijodiy faoliyatning ustuvorligini ta'minlash asosida aniqlashtirilganligiga doir taklif va tavsiyalar “Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 15-noyabrda 11-05-6583/04-son dalolatnoma). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kasbiy-shaxsiy fazilatlar va axborot almashish muhitining o'zaro dinamik samaradorligi aniqlash imkoni yaratilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ularning shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish bosqichlarini didaktik integratsiyalash hamda tashkiliy-funksional imkoniyatlarini divergent va konvergent tafakkur shakllariga

bosqichma-bosqich adaptiv uyg'unlashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga optimal singdirish asosida takomillashtirilganligiga oid taklif va tavsiyalar Farg'ona davlat universitetida bajarilgan "EMI (English as a Medium of Instruction)" nomli loyihani bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 15-noyabrdagi 11-05-6583/04-son dalolatnoma). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kasbiy-shaxsiy fazilatlar va axborot almashish muhitining o'zaro dinamik samaradorligini tadqiq etishga sharoit yaratilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va yondashuvlardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash modeli kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishdagi fundamental shakl, metod, vosita va mazmuniy mohiyati innovatsion pedagogik texnologiyalarni reproduktiv, produktiv va kreativ baholash mezonlarining intensiv modernizatsiyalashtirish asosida isbotlanganligiga oid xulosalar "Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 15-noyabrdagi 11-05-6583/04-son dalolatnoma). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik texnologiyalar va yondashuvlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari takomillashtirilishiga erishilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakasi va pedagogik mahoratini oshirish asosida pedagogik jarayonni loyihalash, rejalashtirish va modellashtirishning samarali mexanizmlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, malaka va ko'nikmalarini o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli didaktik vazifalarga mos keladigan amaliy faoliyatni tashkil etishda passiv, faol va interfaol metodlarni kreativ yondashuv asosida samarali qo'llash orqali aniqlashtirilganligiga oid takliflar "Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 15-noyabrdagi 11-05-6583/04-son dalolatnoma). Natijada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakasi va pedagogik mahoratini oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. . Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish e'lon qilingan bo'lib, jumladan, 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, shundan 6 ta respublika ilmiy jurnallarida, 4 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 131 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatasiyasi, tadqiqot doirasida nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish zarurati, tashkiliy asoslari va innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish vazifalari tadqiq etilgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida “kasb – inson mehnat faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi, hunar” sifatida ta'riflanadi.

Pedagog olim A.Xoliqov o'z tadqiqotida o'qituvchilik kasbi mazmun mohiyatini asoslab “Pedagogik kasb - bu komil inson sifatida harakatlantiruvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarning barqaror tizimidir” degan fikrni beradi.

Shuningdek, tadqiqotchi G.Boymurodovning tadqiqotida “Pedagogik kasbga tayyorgarlik samarasini, ko'proq fanlarni chuqur o'zlashtirish va amaliyotda natijasini ko'ra bilishni chuqurlashtirish” deb ta'kidlaydi. Yuqoridagi olimlar tadqiqotlari yuzasidan ma'lum bo'ladiki, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash murakkab va ko'p qirrali jarayondir.

Pedagog olim N.M.Egamberdiyeva o'zining izlanishlarida pedagoglarni “kasbiy yetuklik”gi har bir mutaxassis uchun zarurligini ta'kidlaydi. Kasbiy yetuklik yaxlit bir tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o'zida uyg'unlashtiradi: ularga “pedagogik madaniyat, ijodkorlik, pedagogik aql-idrok, pedagogik bilimga egalik, individual faoliyat, insonparvarlikka yo'naltirilganlik, ijtimoiy faoliyat” ni kiritish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini tadqiq etish masalalari ko'plab xorijlik olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o'zini o'zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to'liq psixologik shakllari E.F.Zeyer tomonidan o'rganilgan. U kasbiy tayyorgarlikni kasbiy faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi. Shuningdek, shaxsning yo'naltirilganligi, professional jihatdan muhim fazilatlari, psixofizologik xususiyatlarini ifodalaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda ularning pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish talab etiladi. Qobiliyatlar asosida kasbiy sifatlar shakllanadi. Pedagogik sifatlar shakllanishiga o'qituvchi o'z faoliyat yo'nalishini to'g'ri belgilaganligi darajasi va unda o'zining kasbiy imkoniyatlari darajasini to'g'ri anglashi bilan bog'liq shaxsiy jihatlar ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida pedagogik mahoratning shakllanib borishi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashimiz lozim. Pedagogik mahoratni biz o'qituvchida bo'lishi lozim bo'lgan bir qancha

shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida tushunamiz. Bu shaxsiy sifatlar kasbiy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishga imkon beradi. Shunday muhim sifatlarga – o‘qituvchi faoliyatining insonparvarligi, uning kasbiy bilimi, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik tekikasini kiritish mumkin.

Pedagogik mahoratning fundamental asosi – bu kasbiy bilimdir. O‘qituvchining bilimi bir tomondan fanga, ikkinchi tomondan uni o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga qaratiladi. Kasbiy bilim mazmuni esa o‘z predmeti nazariyasi va metodikasini pedagogika va psixologiyani yaxshi bilish bilan belgilanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda kasbiy pozitsiya muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Pedagogik pozitsiya – pedagogik tafakkur mahsuli, tarbiya jarayonini his etish va tarbiya jarayoniga tayyorgarlik darajasidir. Bu shunday holatki, o‘qituvchining bolalarga nisbatan egallagan dastlabki pozitsiyasi uning keyingi faoliyati yo‘lini belgilab beradi. Chunki shu pozitsiya orqali turli vaziyatlar o‘qituvchiga o‘z hukmini o‘tkaza boshlaydi. Agar o‘qituvchi bolani “sindirish”, “yengish” yoki “bo‘ysundirish”ga intilsa, bolaning kichik xatosi ham uni g‘azablantiradi va natijada bolaga qichqirish, qattiq tanbeh berish, yomon baho qo‘yish va uni kamsitish kabi holatlar ro‘y beradi. Agar o‘qituvchi sinfga “ishlash”, “tarbiyani anglash”, “muayyan muloqotga kirishish”, “maqsadga erishish” uchun borsa, u o‘quvchilarning bosh maqsadga tomon umumiy harakatiga xalaqit bermagan holda undagi ayrim kamchiliklarni yo‘l-yo‘lakay bildirmasdan hal etib boradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishsiz imkonsiz jarayon bo‘lib qoladi. Pedagogika sohasida kasbiy kompetentlik tarkibi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, turli rakursdagi qarashlarda tadqiqotchilar pedagogik faoliyatning u yoki bu tarkibiy qismiga urg‘u berishadi. Tahlillar asosidagi kasbiy kompetentlikning yaxlit holatdagi tarkibiy qismlari: kognitiv, kasbiy-texnologik, axborot, kommunikativ, metodik va boshqalardan iborat.

Pedagogika fanlari nomzodi S.Bozorova “Oliy ta’limda kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi” monografiyasida kasbiy-yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Ta’lim oluvchilarda ularning bo‘lajak kasbiy faoliyati uchun muhim shaxsiy sifatlarni, shuningdek, vazifasi bo‘yicha funksional majburiyatlarni bajarishni ta’minlaydigan ko‘nikma va malakalarni shakllantiradigan texnologiya tushuniladi”.

Shuningdek, so‘ngi yillarda B.Ziyomhammadov va M.Tojiyevlar tomonidan “Pedagogik texnologiyaning ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiqi va uning barkamol avlod fazilatlarini shakllantirishdagi o‘rni” monografiyasi yaratildi. Unda Sharq allomalari, taniqli olimlarning fikrlari, shuningdek, bu borada qariyb 30 yil davomida olib borilgan shaxsiy tadqiqotlar tahlil qilingan. O‘zbekistonning barkamol avlodiga xos bo‘lgan ijtimoiy sifatlar majmui tuzilib, bu xususiyatlarni tarkib toptirish yo‘l-yo‘riqlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalaridagi pedagogik faoliyatni innovatsion yondashuvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Nafaqat ta’lim, balki barcha sohalarda innovatsion faoliyatga zaruriyat tug‘iladi. Bu faoliyat hamisha

ziddiyatli bo'lib, uning o'zi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi va bu ziddiyatlarni hal etish orqali rivojlanib boradi.

Innovatsion pedagogik texnologiya – ta'limning har qanday sohasida istalgan natijaga erishish uchun ilmiy va amaliy asoslangan usullar va vositalar sistemasidir.

Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va talaba maqsadlarining birlashgan nuqtalarida (o'qitish va o'qish maqsadlari) ta'lim nazariyasi asosida ta'lim jarayonini loyihalash va amalga oshirish yo'llari orqali ko'zlangan maqsadga erishishdir.

«Texnologiya» so'zi ta'lim jarayoniga nisbatan o'qish va o'qitishning o'zaro uzviyligi, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan ishlarni talab darajasida bajarishni anglatadi. Boshqacha aytganda, ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim berish san'ati, ta'lim berish mahorati ma'nolarini ifodalaydi. Yangi pedagogik texnologiya deyilganda ta'lim berish san'atini ishga solib, uni samarali tashkil etish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish tushuniladi.

Masalan, N.Saidaxmedov "Pedagogik texnologiya" atamasini quyidagicha ifodalaydi: "Pedagogik texnologiya tushunchasi haqida to'xtalar ekanmiz, eng avvalo, uning ma'nosini anglab olaylik. Ta'lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslari, mohiyati xususida so'z yuritish uchun "Ta'lim texnologiyasi" tushunchasining tub ma'nosini anglash talab etiladi. "Texnologiya" yunoncha so'z bo'lib, "Techne" - mahorat, san'at hamda "logos" - tushuncha, ta'limot so'zlarining birlashmasidan hosil bo'lgan. "Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi esa lug'aviy jihatdan (inglizcha "an educational technology") ta'lim (o'qitish) jarayonini yuksak mahorat san'at darajasida tashkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi ta'limot ma'nosini anglatadi".

Bunday jarayonni tashkil etishi uchun ta'lim tizimiga moslashgan, o'quvchilar yoshini inobatga olgan holda pedagogik texnologiyaning quyidagi vazifalari va xususiyatlari mavjud:

- ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy, yaxlit loyihasini ishlab chiqish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;
- ta'lim-tarbiya jarayoni mohiyatini bashoratlash va uning mazmunini ishlab chiqish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shaxs, metod, usul hamda texnik vositalarni tanlash;
- ta'lim jarayonida talabani erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma'lum ko'nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o'rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash;
- talabalarni faoliyatga yo'naltirish va ularni faollashtirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish.

Ana shu innovatsion pedagogik texnologiya o'z vazifalaridan kelib chiqib uch xil xususiyatga ega:

- **ilmiylik:** ilmiy-nazariy hamda amaliy g'oyalar shakllanish jarayonining mohiyatini ifodalash, o'quv-tarbiya maqsadi, mazmuni, shakl, uslublarini ilmiy jihatdan asoslash, pedagogik jarayonning umumiy loyihasini ishlab chiqish;

- **amaliylik:** amaliyotdagi tatbiqiy hamda samaradorlik darajasini aniqlash;

- **tavsifiylik:** rejalashtirilgan pedagogik faoliyat natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metod va vositalar yordamida algoritm jarayonini yoritish.

Yuqoridagi fikrlar asosida, bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirishda quyidagi ta'lim texnologiyalarini bilishlari juda muhim degan xulosaga keldik:

1. Jamoada, guruhda o'qitish texnologiyasi. Har bir a'zosiga g'amxo'rlik asosida birlashgan insonlar guruhi bo'lib, uning asosiy tamoyillari: o'zgaruvi kichik guruhlar, juftliklar, ulardagi o'zaro ta'lim, o'zaro nazorat o'zaro boshqaruv. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik rahbarlik va boshqaruv natijasida bu shakllardan foydalanish umumiy maqsadni angalsh, vazifalarni maqsadli belgilash, o'zaro bog'liqlik va nazorat kabi jamoaga xos bo'lgan sharoitlarni yuzaga keltiradi.

2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi. O'quvchining individual xususiyatlarini ochib berish, uning qobiliyatlarini rivojlantirish, qiziqishlarini e'tiborga olgan holda shaxs sifatida shakllanishiga yordam beruvchi yakka tartibda olib boriladigan ta'lim shaklini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deyiladi.

3. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi faqat birgalikda biror ish bajarish emas, birgalikda o'qishdan iborat. Ta'lim oluvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish imkoniyatlari turlicha: ayrimlari o'qituvchilarning tushuntirishlarini tez ilg'ab oladi, ayrimlariga qo'shimcha vaqt va tushuntirish ishlari zarur. Agar ta'lim oluvchilarni 4-5 nafardan kichik guruhlariga ajratib, ularning har biri vazifasi aniq ko'rsatib o'tilsa, bunday vaziyatda guruhning har bir a'zosi o'ziga yuklatilgan vazifa va guruh vazifasiga mas'uliyat sezadi. Past o'zlashtiruvchilar ilg'orlardan yordam so'raydilar. Hamkorlikda kelib chiqadigan muammolar hal etiladi.

4. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli o'qitishning mohiyati o'qituvchi tomonidan talabalarni o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalari, muammolari va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi. Muammoli o'qitishning vazifasi, talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy-amaliy faoliyatlari usullarini samarali o'zlashtirishga hamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatga olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini hosil qilish, bilim mustaqilligi hamda o'quv-tarbiya muammolarini hal qilishdir. Muammoli o'qitishga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasida ijodiy, qisman-ijodiy va evristik, axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish asosiy metodlar hisoblanadi.

5. Modul texnologiyasi. Ta'lim oluvchi unga tavsiya etilgan dastur asosida bir muncha mustaqil bilim oladi. Modul - fanning bir yoki bir nechta fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgan, ma'lum tamoyillar asosida ishlab chiqilgan o'quv materialining yakunlangan birligini bildiradi. Modul texnologiyasini qo'llash uchun quyidagilardan tashkil topgan o'quv-metodik majmuani tayyorlash talab

etiladi: talabalar bilimini nazorat qiluvchi test topshiriqlari; mustaqil ish topshiriqlari; o'quv-metodik tarqatma materiallar; adabiyotlar ro'yxati, ishchi o'quv dasturi.

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi ijodkor bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyalarning xilma-xil shakllari, usullarini yaratib borishi, ularni ta'lim jarayonida mahorat bilan qo'llab borishi va undan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz o'z **mualliflik ta'rifini** ishlab chiqdik:

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarning tadbiri - o'qituvchi faoliyatining insonparvarligi, uning kasbiy bilimi, pedagogik qobiliyatlari va texnikasining mavjudligi, kasbiy qonun-qoidalarini bilishi hamda ularga amal qilgan holda ta'lim sifatini oshirishga asos bo'la oladigan o'qituvchining shaxsiy innovatsion yondashuvi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalashga tayyorlash mazmuni, modeli, texnologiyasi va pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan.

Bugungi kunda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolarni ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani tadbiri qilish orqali hal etilishi mumkin. Pedagogik texnologiya tizimida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv mashg'ulotini loyihalashtirishda o'qituvchi, avvalo, o'qitish jarayonini, o'qitish natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil o'qish, bilimlarni ijodiy tahlil qilishga o'rgatishi, o'zlashtirilgan bilimlarni ko'nikmalarga aylantirish uchun o'quv mavzulari bo'yicha metodik tizimni yaratadi, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar mazmunini ishlab chiqadi. Yaratilgan metodik tizim va o'quv ma'lumotlar mazmuni yordamida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etadi va o'quv mashg'ulotlari uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllari (nazariy dars, amaliy mashg'ulot) ni maqsadga mos tanlaydi va uni yechishga yo'llaydi. Mazkur jarayonning samarali bo'lishi, ijtimoiy buyurtmaning aniq hal bo'lishi va ko'zlangan maqsadga erishish uchun, o'qitish jarayonini **loyihalash**, ya'ni ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiri etish talab qilinadi. Zero, «Pedagogik texnologiya usulining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda ta'limning rejalashtirilgan maqsadiga erishishni kafolatlaydigan o'quv-bilish (o'zlashtirish) jarayoni loyihalashtiriladi».

Loyihalash usuli – didaktik maqsadga erishishda muammolarni topish, aniqlash va ularni ishlab chiqish texnologiyasidir. **Loyihalash faoliyati** – talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakli. O'quv mashg'uloti loyihalarini esa kengaytirilgan texnologik xarita ko'rinishida izohlash mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifati muammolarini tahlil qilish jarayonida metodologik asos sifatida pedagogik loyihalash namoyon bo'ladi.

Pedagogik loyihalash - pedagogning pedagogik masalalarni yechishga qaratilgan ketma-ket o'zaro bog'liq harakatlari tizimi yoki oldindan rejalashtirilgan pedagogik jarayonning amaliyotga ketma-ket mujassamlanishidir. Loyihalash muammosi o'zining rivojlanish tarixiga ega. Bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim va

tarbiya berishning muvaffaqiyatliligi va natijaga egaligi pedagog tomonidan loyihaviy faoliyatni qanchalik o'zlashtirib olganligiga bog'liq, chunki bu faoliyat vaziyatga qarab texnologik yechimlarni takomillashtirishga qodir, yangi ta'lim yondashuvlari va usullarini ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar amaliyotida zamonaviy ta'lim texnologiyalari tamoyillari asosida o'quv jarayonini loyihalashtirish va tashkil etishga alohida e'tibor qaratilayotgani yaxshi ma'lum. Lekin O'zbekistonda pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv jarayonini loyihalashtirish masalasida muayyan muammolar mavjud. Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirish davomida bu borada quyidagilar aniqlandi:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv jarayoni loyihalarini tuzish, ta'lim texnologiyasi mohiyati, nazariy va amaliy asoslariga oid manbalar, maxsus adabiyotlar, metodik ishlanmalar va andazalarga ehtiyoj mavjudligi;

2. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, xususan, soha mutaxassislarining o'qitish loyihalarini tuzish bo'yicha malaka oshirish va tajribalarini ommalashtirish tizimini yo'lga qo'yish muhimligi;

3. Ta'limni loyihalashtirib tashkil etishda moddiy-texnik ta'minot muammosining ijobiy hal qilinishi;


4. Ommaviy axborot vositalari orqali ta'lim jarayoni loyihalarini yaratish nazariyasining mohiyati, fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzish va o'qitish borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, tajribalar xususida tahliliy chiqishlar uyushtirilishiga e'tibor qaratish;

5. Ta'limga oid xalqaro donor tashkilotlari imkoniyatlari doirasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariyasi va uning ilmiy-amaliy asoslari hamda o'quv jarayoni loyihalari tuzishni targ'ib etishga yo'naltirilgan keng ko'lamli harakatlarning yuqori darajada tashkil etilishi.

6. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini ochib berishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari doirasi torligi nuqtai nazaridan loyihalashtirib o'qitish bo'yicha maxsus ko'rsatmalar hamda tavsiyalarni yaratish va hokazo.

Yuqorida qayd etilgan muammolarning ijobiy yechimga ega bo'lishini ta'minlash oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyada dars va o'quv mashg'ulotlari jarayonida amalga oshiriladigan ishlar loyihasi oldindan bosqichma-bosqich va aniq vaqtga mo'ljallanib tuzib olinadi. Loyihada mashg'ulot jarayonida beriladigan tayanch tushunchalar, nazorat savollari, qo'llaniladigan vosita va didaktik materiallar ko'rsatiladi. Talabalarning amaliy mashqlarni bajara olishi barobarida o'zlashtirishi ham doimiy nazorat ostiga olinadi. Innovatsion pedagogik texnologiyaning ta'lim jarayoniga tatbiqi ta'lim jarayonining faqat yaxshi yoki a'lo darajada amalga oshirishini kafolatlaydi. Chunki, rejalashtirilgan dars loyihalari olimlar yoki tajribali pedagoglar tomonidan tuzib chiqiladi.



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish modeli

Pedagog maqomini ro'yobga chiqarish bosqichida (birinchi kurs) shaxsning yangi ijtimoiy roli, kasbning umumiy ilmiy asoslarini o'zlashtirish bilan bog'liq yaxlit rivojlanishi kuzatiladi. Shaxsning boshqalar ta'siriga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Bu davrda talabalar odatda o'z rollarini farqlamaydilar. Talabalar jamoa hayotining o'ziga xos shakllari bilan tanishadilar. Bu bosqichda talabalar yangi ijtimoiy aloqalarni o'rnatadilar, turli sharoitlarga moslashadilar.

Kasbiy o'z-o'zini bilish bosqichida (ikkinchi kurs) talabalar shaxsining ixtisoslashtirilgan rivojlanishi davom etadi, ularning madaniy talab va ehtiyojlari shakllanadi. Ular ishonch va mustaqillikka erishadi, nafaqat ta'lim va tarbiyaning barcha shakllariga kiritiladi, balki jamoat tashkilotlarida ham faol ishtirok etadi. Bu davrda asosan umumkasbiy fanlarga e'tibor ortadi.

Kasbiy o'z-o'zini anglash bosqichida (uchinchi kurs) talabalarning ixtisoslik o'quv fanlariga bo'lgan diqqati mustahkamlanib, ularning kasbiy faoliyat motivlari mustahkamlanadi. Bu bosqichda ilmiy izlanishga qiziqish ortadi va tanlangan kasbning xususiyatlari o'rganiladi. Shu bilan birga, talabalarning ijtimoiy faolligi rivojlanadi va o'z-o'zini tashkil etish darajasi ortadi.

Kasbiy tayyorlik bosqichi (to'rtinchi kurs) pedagogik faoliyatga bo'lgan munosabat bilan bog'liq bo'lib, mutaxassis ishining usul va texnologiyalarini o'zlashtirishga undaydi. Bu bosqichda talaba pedagogik tajribani egallash uchun amaliyot joyini tanlashga ko'proq ongli ravishda yondashadi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

“Smart” texnologiyasi. “Smart” (inglizcha aqlli, mushohadali, harakatchan) degan ma'noni bildirib, talabalarda pedagogik kompetensiyani shakllantirishda, bilimni oshirishda, auditoriyada jamoa bo'lib mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda juda qo'l keladi. Bu metod talabalarda mavzu (masala, muammo)ni ijodiy o'rganish, nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlash asosida fikrni qisqa va aniq bayon qilish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari ushbu texnologiyadan yagona internet tarmog'i orqali ta'limni amalga oshiruvchi birlashmalar faoliyatida foydalanish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish har bir o'quv kursida bosqichma-bosqich shakllantirishga muvofiq amalga oshiriladi.

“Assesment” texnologiyasi(ingl. “essesment” - “baho”, “baholash”) – talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plamidan iborat. Mazkur texnologiya shaxsning kasbiy tayyorgarligi, mutaxassis sifatida shakllanganlik darajasi hamda kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligini aniqlash, baholashga xizmat qiladi.

Assisment texnologiyasini qo'llash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Yaxlitlik (talabalar turli mashq va testlar yordamida sinovlardan o'tadi).

Reallik (talabalarning kuzatib borilayotgan xatti-harakati baholanadi).

Mustaqillik (har bir talaba bir necha mutaxassislar tomonidan baholanadi).

Obyektivlik (hulosalar standartlashgan baholarga talabalarning umumiy-madaniy kompetentligini baholashda “assesment” baholash amalga oshiriladi).

Vebinar texnologiyalar (ingl. “webinar” –web-based seminar) –

1) web-texnologiyalari va an'anaviy ta'limning o'zaro birligi asosida tashkil

etiladigan seminar;

2) Internet texnologiyalari va maxsus dasturlar qo'llanilgan holda talaba (tinglovchi)lar bilan interfaol o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakli.

